Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli bank xizmatlari bozorining o'ziga xos xususiyatlari va ushbu bozorda banklararo raqobatning yangi shakllari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ko'p tomonlama tarmoq effektlari, past chegara xarajatlari, ma'lumotlarning strategik ahamiyati, mijoz o'tish xarajatining pasayishi, geografik chegaralarning yo'qolishi, regulyatorlik asimmetriyasi kabi xususiyatlar va ular asosida shakllanayotgan platforma, ma'lumot, ekotizim, tezlik va ishonch raqobati shakllari o'rganilgan. Muallif tomonidan O'zbekiston bank tizimi uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli bank xizmatlari, banklararo raqobat, ko'p tomonlama platforma, tarmoq effekti, FinTech, neobank, BigTech, ekotizim raqobati, ma'lumotlar raqobati, CBDC, Open Banking.

Abstract. This article analyzes the specific features of the digital banking services market and the new forms of interbank competition emerging in this market. The study examines multi-sided network effects, low marginal costs, the strategic importance of data, reduced customer switching costs, the disappearance of geographic boundaries, and regulatory asymmetry, as well as the emerging platform, data, ecosystem, speed, and trust competition forms. The author provides practical recommendations for the banking system of Uzbekistan.

Key words: digital banking services, interbank competition, multi-sided platform, network effects, FinTech, neobank, BigTech, ecosystem competition, data competition, CBDC, Open Banking.

Аннотация. В данной статье проанализированы особенности рынка цифровых банковских услуг и новые формы межбанковской конкуренции, возникающие на этом рынке. В исследовании рассмотрены многосторонние сетевые эффекты, низкие предельные издержки, стратегическая важность данных, снижение издержек переключения клиентов, исчезновение географических границ и регуляторная асимметрия, а также формирующиеся платформенная, данных, экосистемная, скоростная и доверительная конкуренция. Автором даны практические рекомендации для банковской системы Узбекистана.

Ключевые слова: цифровые банковские услуги, межбанковская конкуренция, многосторонняя платформа, сетевые эффекты, FinTech, необанк, BigTech, экосистемная конкуренция, конкуренция данных, ЦБЦБ, открытый банкинг.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda moliyaviy xizmatlar bozori keskin o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ushbu o'zgarishlarning markazida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ularning bank sektoriga kirib kelishi turadi. Raqamli bank xizmatlari bozori bugungi kunda mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida shakllangan bo'lib, u an'anaviy bank xizmatlari bozoridan o'zining tarkibiy tuzilmasi, raqobat shakllari, ishtirokchilar doirasi va baholash mexanizmlari jihatidan tubdan farqlanadi.

Mavzuning dolzarbligi quyidagi statistik dalillar bilan tasdiqlanadi: 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda 36 ta tijorat banki faoliyat yuritmoqda, davlat ishtirokidagi banklar bank sektori kapitalining 60,16 foizini va aktivlarining 63,5 foizini nazorat qilmoqda¹. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, raqamli to'lovlar ulushi 2020-yildagi 22 foizdan 2025-yilga 67 foizga ko'tarildi, mobil banking foydalanuvchilari 4,2 milliondan

1 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari. www.cbu.uz (kirish sanasi: 2026-yil 15-fevral).



22,1 millionga oshdi. Bu raqamlar raqamli transformatsiyaning bank sektoridagi raqobat muhitini tubdan o'zgartirayotganini bildiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOT SHARHI

Raqamli bank xizmatlari va ularda raqobatning yangi shakllarini o'rganish bo'yicha xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari muhim metodologik asos yaratadi. Shapiro va Varian raqamli xizmatlarni texnologik mahsulot sifatida ko'rib, ularning nol chegara xarajati va cheksiz ko'paytirilishi xususiyatlarini asosiy farqlovchi belgi sifatida ajratib ko'rsatdi². Bu yondashuv raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy tabiatini tushunishda fundamental hisoblanadi: bir marta ishlab chiqilgan mobil banking ilovasi deyarli hech qanday qo'shimcha xarajatsiz millionlab foydalanuvchilarga xizmat ko'rsata oladi.

Rochet va Tirole tomonidan ishlab chiqilgan ikki tomonlama bozorlar nazariyasi raqamli bank platformalarini tushunishda metodologik zamin yaratadi³. Ushbu nazariyaga ko'ra, raqamli platforma ikki yoki undan ko'p foydalanuvchi guruhlarini bir tizimda birlashtiradi va ularning o'zaro ta'siridan daromad oladi. Mariotto va Verdier raqamli texnologiyalar bilan bankingda raqobatning ikkita muhim oqibatini ko'rsatdi: birinchidan, narq raqobati kuchayadi; ikkinchidan, FinTech kompaniyalari bozorga kirish to'siqlarini sezilarli darajada engib o'tadi⁴.

Koont va Zhang IMF Working Paper doirasida 50 dan ortiq mamlakatni qamrab olgan empirik tadqiqotda raqamli bank xizmatlari bozorida raqobat ustunligining asosiy manbai sifatida kapital va filial tarmog'i o'rnini tobora ma'lumotlar va ulardan foydalana olish imkoniyati egallayotganini empirik isbotladi⁵. De Lis va Urbiola Ortún rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha o'tkazgan tadqiqotda raqamli muhitda mijoz o'tish xarajatining (switching cost) keskin pasayishi raqobatni kuchaytirishi va innovatsiyaga majbur qilishini ko'rsatdi⁶.

Lyons, Jia va He FinTech kompaniyalari va neobanklarning an'anaviy banklarga qaraganda ancha kam regulyatorlik yukiga duch kelishini ko'rsatib, "level playing field" — teng raqobat maydoni muammosini ilmiy jihatdan asosladi⁷. Bogaard va Doerr BIS Working Paper tadqiqotida raqamli kanallarning tezkorligini raqobat ustunligi emas, balki yangi risk omili sifatida ham ko'rish zarurligini asoslab berdi: 2023-yildagi Silicon Valley Bank va Credit Suisse holatlari raqamli kanallar orqali axborot tarqalishining tezlashuvini ko'rsatdi⁸.

Mahalliy olimlar orasida D.A. Raxmonov hamkasblari bilan moliyaviy globallashuv sharoitida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishini o'rganib, raqamli kanallar orqali bank xizmatlarini taqdim etishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqdi⁹. O.A. Ortiqov tijorat banklari xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish yo'llarini tahlil qilib, raqamli muhitda sifatli raqobatning shakllanish shartlarini aniqladi¹⁰.

Yuqorida keltirilgan xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari muhim ilmiy va uslubiy manba hisoblanadi. Biroq ularning ishlarida O'zbekiston sharoitida raqamli bank xizmatlari bozorining o'ziga xos xususiyatlari va ushbu bozorda shakllanayotgan banklararo raqobatning yangi shakllari yetarli darajada tizimli tarzda o'rganilmagan. Aynan shu jihat hozirgi tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida belgilangan maqsadlarga erishish uchun mantiqiy va tarkibiy tahlil usullari, guruhlash, qiyosiy-tarixiy tahlil, tizimli yondashuv hamda qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi. Tahlilga raqamli bank xizmatlari va ularda raqobatning yangi shakllari bo'yicha eng obro'li xalqaro tadqiqotchilar — Rochet va Tirole, Shapiro va Varian, Mariotto va Verdier, Koont va Zhang, De Lis va Urbiola, Lyons, Jia va He, Bogaard va Doerr — ishlari kiritildi.

Empirik manbalar sifatida Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS), Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVF), Yevropa

2 Shapiro C., Varian H.R. Information Rules: A Strategic Guide to the Network Economy. — Boston: Harvard Business School Press, 1999. — P. 19–25.

3 Rochet J.-C., Tirole J. Platform Competition in Two-Sided Markets // Journal of the European Economic Association. — 2003. — Vol. 1, No. 4. — P. 990–1029.

4 Mariotto C., Verdier M. Competition in banking with digital technologies // Journal of Financial Intermediation. — 2022. — Vol. 50. — P. 101–108.

5 Koont N., Zhang Y.S. Digital transformation and bank competition // IMF Working Paper. — 2023. — No. WP/23/114. — P. 15–18.

6 De Lis S.F., Urbiola Ortún P. Digital banking and competition in emerging markets // BBVA Research Paper. — 2022. — No. 22/04. — P. 8–14.

7 Lyons B., Jia K., He Y.H.Y. Fintech competition and bank market structure // Journal of Banking & Finance. — 2022. — Vol. 143. — P. 10–17.

8 Bogaard H., Doerr S. Digital bank runs and liquidity risk // BIS Working Papers. — 2023. — No. 1111. — P. 5–9. URL: <https://www.bis.org/publ/work1111.htm>

9 Raxmonov D.A. va boshq. Moliyaviy globallashuv sharoitida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi: nazariya va amaliyot: Monografiya. — Toshkent: "Iqtisodiyot", 2018. — 49–60 b.

10 Ortiqov O.A. Tijorat banklari xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish yo'llari: 08.00.07 — "Moliya, pul muomalasi va kredit" iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent: TDIU, 2024. — 24 b.



Bank Nazorati Organi (EBA), Singapur Pul-valyuta boshqarmasi (MAS), Xitoy Xalq banki (PBC), BBVA Research hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy ma'lumotlari ishlatildi. O'tkazilgan tahlillar natijasida raqamli bank xizmatlari bozorining yetti o'ziga xos xususiyati va olti yangi raqobat shakli aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli bank xizmatlari bozorining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq tushunish uchun, avvalo, ushbu tushunchaning ilmiy ta'rifini shakllantirish zarur. Iqtisodiy adabiyotlarda raqamli bank xizmatlariga turlicha yondashilgan bo'lib, ushbu yondashuvlar raqobatni baholash metodologiyasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Raqamli bank xizmatlari tushunchasining turli ilmiy maktablar tomonidan talqini 1-jadvalda tizimli ko'rinishda keltirilgan.

1-jadval

Raqamli bank xizmatlari tushunchasining turli ilmiy maktablar tomonidan talqini

Ilmiy maktab / Muallif	Ta'rif yondashuvi	Raqamli bank xizmatlari mohiyati	Maqolaga aloqadorligi
Shapiro, Varian (1999)	Texnologik mahsulot	Internet orqali taqdim etiluvchi, nol chegara xarajatli standartlashtirilgan moliyaviy mahsulot	Raqamli kanal va xizmat farqini asoslashda zamin
Rochet, Tirole (2003)	Ko'p tomonlama platforma	Ikki yoki ko'p tomonlama raqamli platforma orqali moliyaviy vositachilik xizmati	Raqobat modelini tanlashda metodologik zamin
Bogaard, Doerr (BIS, 2023)	Risk va likvidlik tizimi	Real vaqtda mijozga xizmat ko'rsatuvchi va o'ziga xos likvidlik riskini tug'diruvchi raqamli tizim	Raqamli raqobat va moliyaviy barqarorlik bog'liqligi
Koont, Zhang (IMF, 2023)	Transformatsiya jarayoni	Moliyaviy sektorning raqamlashuvida yangi raqobat muhitini shakllantiruvchi xizmatlar majmuasi	50+ mamlakatda empirik tasdiqlangan; O'zbekistonga tatbiq etish uchun asos
Mariotto, Verdier (2022)	Raqobat mexanizmi	Chegara xarajatlarini kamaytiruvchi va yangi raqobatchilar kirishini osonlashtiruvchi raqamli bank modeli	FinTech va banklar raqobatini tushuntirishda nazariy asos
Raxmonov va boshq. (2018)	Masofaviy xizmat	Mijozga fizik murojaat talab etmay, elektron kanallar orqali ko'rsatiladigan bank operatsiyalari	O'zbekiston sharoitiga moslashtirishning nazariy asosi
Muallif taklifi (2026)	Integrallashgan tizim	Raqamli texnologiyalar asosida, real vaqtda, platformalararo va ma'lumotga asoslangan holda ko'rsatiladigan, tarmoq effektlari bilan kuchayuvchi moliyaviy xizmatlar tizimi	Tadqiqotning asosiy nazariy ta'rifi

Manba¹¹

11 Manba: muallif tomonidan Shapiro va Varian (1999); Rochet va Tirole (2003); Bogaard va Doerr (2023);



1-jadvalda keltirilgan ta'riflarni qiyosiy tahlil qilar ekanmiz, ularning barchasi raqamli kanallar orqali moliyaviy xizmat ko'rsatish faktini tan olsa-da, raqobat muhitini belgilovchi asosiy omillarni turlicha baholaydi. Muallif tomonidan taklif etilgan ta'rif ushbu yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda, raqamli bank xizmatlari bozorining o'ziga xos xususiyatlarini — platforma, ma'lumot, tarmoq effekti va real vaqt xizmat ko'rsatish — tizimli tarzda qamrab oladi.

Raqamli bank xizmatlari bozorining birinchi muhim o'ziga xos xususiyati — ko'p tomonlama platforma tuzilmasi. Rochet va Tirole tomonidan ishlab chiqilgan ikki tomonlama bozorlar nazariyasiga ko'ra, raqamli platforma ikki yoki undan ko'p foydalanuvchi guruhlarini bir tizimda birlashtiradi va ularning o'zaro ta'siridan daromad oladi¹². Bank sektorida bu holat ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi: raqamli to'lov platformasi bir tomondan to'lovchilarni, ikkinchi tomondan savdogarlarni o'zida birlashtiradi. Ushbu tuzilma an'anaviy bank modelidan tubdan farq qilib, platforma o'sishi bilan tarmoq effektlari kuchayadi va raqobat dinamikasi tub o'zgarishlarga uchraydi.

Tarmoq effektlari tushunchasi raqamli bank xizmatlari bozorida raqobatning yangi qonuniyatlarini tushuntirishda asosiy nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Metcalfe qonuniga ko'ra, tarmoqning qiymati undagi foydalanuvchilar sonining kvadratiga mutanosib ravishda o'sadi¹³. Bank sektoriga tatbiq etilganda bu shuni anglatadiki: ko'proq mijozni jalb qilgan raqamli bank platformasi nafaqat mutlaq, balki nisbiy jihatdan ham yanada qimmatroq xizmat ko'rsata oladi. Ushbu holat raqamli bank xizmatlari bozorida "kuchlilar yanada kuchli bo'ladi" tamoyilini yuzaga keltiradi va bozor konsentratsiyasining ortishiga olib keladi.

Raqamli bank xizmatlari bozorining ikkinchi muhim xususiyati — past chegara xarajatlari hodisasi. An'anaviy bank xizmatida har bir yangi mijozga xizmat ko'rsatish uchun qo'shimcha xodim, joy va vaqt talab etiladi. Raqamli xizmat muhitida esa qo'shimcha foydalanuvchiga xizmat ko'rsatish xarajati deyarli nolga yaqinlashadi. Mariotto va Verdier raqamli texnologiyalar bilan bankingda raqobat tadqiqotida ushbu xususiyatning ikkita muhim oqibatini ko'rsatadi: birinchidan, narq raqobati kuchayadi; ikkinchidan, yangi raqobatchilar — xususan FinTech kompaniyalari — bozorga kirish to'siqlarini sezilarli darajada engib o'tadi¹⁴. O'zbekiston sharoitida ushbu xususiyat ayniqsa muhim: filial tarmog'i bo'lmagan raqamli banklar an'anaviy banklarga qaraganda ancha past operatsion xarajat bilan ishlash imkoniga ega.

Uchinchi xususiyat — ma'lumotlarning strategik resursga aylanishi. Raqamli muhitda banklar mijozlar to'g'risida ulkan hajmdagi ma'lumotlarni to'playdi: tranzaksiya tarixi, xarid qilish odatlari, geografik harakatlar, ijtimoiy aloqalar. Koont va Zhang o'tkazgan empirik tadqiqot natijalarida ko'rsatilishicha, raqamli bank xizmatlari bozorida raqobat ustunligining asosiy manbai sifatida kapital va filial tarmog'i o'rnini tobora ma'lumotlar va ulardan foydalana olish imkoniyati egallayapti¹⁵. Ushbu o'zgarish an'anaviy raqobat baholash usullarini eskirtirib, yangi metodologik yondashuvlarni talab etmoqda.

To'rtinchi o'ziga xos xususiyat — mijoz o'tish xarajatining (switching cost) keskin pasayishi. An'anaviy bank tizimida bank o'zgartirish mijozdan katta vaqt, hujjatlar va kuch talab etardi. Raqamli muhitda esa neobank hisobini ochish bir necha daqiqa ichida amalga oshirilishi mumkin. De Lis va Urbiola Ortún tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda ushbu xususiyat ikki jihatdan baholanadi: bir tomondan, raqobatni kuchaytiradi va innovatsiyaga majbur qiladi; ikkinchi tomondan, banklarning uzoq muddatli mijoz bazasini saqlab qolishini qiyinlashtiradi¹⁶. O'zbekiston bank sektorida bu muammo yanada o'tkir xarakter kasb etadi, chunki mijozlarning raqamli savodxonligi va mobil qurilmadan foydalanish darajasi o'sib bormoqda.

Raqamli bank xizmatlari bozorida shakllanayotgan raqobatning yangi shakllari va ularning baholash mexanizmlari 2-jadvalda tizimli ko'rinishda umumlashtirilgan.

Koont va Zhang (2023); Mariotto va Verdier (2022); Raxmonov va boshq. (2018) asarlari asosida tuzilgan.

¹² Metcalfe B. Metcalfe's Law after 40 Years of Ethernet // Computer (IEEE). — 2013. — Vol. 46, No. 12. — P. 26–31. Tarmoqning qiymati uning foydalanuvchilari sonining kvadratiga mutanosib.

¹⁴
¹⁵

¹⁶

2-jadval

Raqamli bank xizmatlari bozorida banklararo raqobatning yangi shakllari va baholash mexanizmlari¹⁷

Raqobat shakli	Asosiy mexanizm	Namoyon bo'lish shakli (O'zbekiston)	Baholash ko'rsatkichi
Platforma raqobati	Tarmoq effekti va ko'p tomonlama platforma tuzilmasi	Payme, Click, Uzum Bank super-app'lari; HUMO, UzCard to'lov tizimlari	MAU, ekotizim ulushi, API integratsiyalar soni
Ma'lumotlar raqobati	Big Data va AI orqali mijozni chuqur tahlil qilish va personallashtirish	Shaxsiy kredit takliflari, xulq-atvoriga asoslangan baho, AI-kredit skoringi	Personalizatsiya darajasi, model aniqligi (AUC), ma'lumot hajmi
Ekotizim raqobati	Bir platformada to'liq moliyaviy va nomoliyaviy xizmatlar integratsiyasi	Bank + e-commerce + sug'urta + investitsiya birlashuvlari (Uzum ekotizimi)	Ekotizim xizmatlari soni, foydalanuvchi engagement
Tezlik raqobati	Real vaqtda xizmat va innovatsiyalarni tez joriy etish (agile)	Tezkor to'lovlar, darhol kredit qarorlari, 24/7 raqamli xizmat	Tranzaksiya tezligi (ms), yangilanish siklining davomiyligi
Regulyatorlik arbitraj raqobati	Turli regulyatorlik rejimlaridan foydalanish (Sandbox, FinTech litsenziyasi)	FinTech va Neobank kompaniyalari an'anaviy bankdan kam kapital bilan ishlashi	Kapital yetarlilik nisbati, regulyatorlik xarajatlari farqi
Ishonch raqobati	Kiberxavfsizlik, ma'lumotlar maxfiyligi va brend ishonchi kapitalini shakllantirish	ISO 27001 sertifikat, shaffof narq siyosati, zero-incident statistikasi	NPS indeksi, mijoz saqlanishi (retention), shikoyatlar soni

2-jadvalda keltirilgan raqamli bank xizmatlari bozorida raqobatning yangi shakllari tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy banklararo raqobat tushunchasi raqamli transformatsiya jarayonida o'z mazmunini saqlab qolgan holda yangi o'lchamlar bilan boyidi. Platforma raqobati, ma'lumotlar raqobati va ekotizim raqobati bugun an'anaviy narq raqobatiga qaraganda muhimroq rol o'ynamoqda. Mazkur jadvalda aks ettirilgan har bir raqobat shaklining o'z baholash ko'rsatkichi mavjud bo'lib, bu holat banklararo raqobatni baholash metodologiyasini yangilash zaruriyatini asoslaydi.

Raqamli bank xizmatlari bozorida raqobatning muhim yangi shakli sifatida platforma raqobatini alohida ko'rib chiqish zarur. Ushbu raqobat shakli Rochet va Tirole tomonidan ishlab chiqilgan ikki tomonlama bozorlar nazariyasiga asoslanib, bank platformasining asosiy maqsadi turli toifadagi foydalanuvchilarni o'zaro bog'lash va ularning o'zaro ta'siridan daromad olish deb belgilanadi¹⁸. O'zbekiston sharoitida ushbu raqobat shaklini Payme va Click misollari orqali ko'rish mumkin: ushbu platformalar bir tomondan xaridorlarni, ikkinchi tomondan savdogarlarni birlashtiradi va ularning o'zaro to'lov operatsiyalaridan daromad oladi.

Ma'lumotlar raqobati raqamli bank xizmatlari bozorining eng yangi va eng strategik jihatini ifodalaydi. Katta ma'lumotlar (Big Data) va sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarining rivojlanishi bilan banklar endi mijoz to'g'risidagi ma'lumotlardan yangi xizmatlar yaratishda, kredit risk baholashda va personallashtirilgan takliflar ishlab chiqishda foydalana olmoqda. IMF tadqiqotchilari Koont va Zhang bunday o'zgarishni raqamli bank xizmatlari bozorida raqobatning "uchinchi to'lqini" deb atashgan bo'lib, u raqamli kanallarning kengayishidan keyin birinchi to'lqin va raqamli mahsulotlar diversifikatsiyasidan keyin ikkinchi to'lqin yangi bosqich sifatida shakllanmoqda.

Ekotizim raqobati raqamli bank xizmatlarida eng murakkab va keng qamrovli raqobat shakli hisoblanadi. Ushbu yondashuvda bank nafaqat moliyaviy xizmatlar doirasida, balki moliyaviy bo'lmagan xizmatlar bilan integratsiya qilingan yaxlit ekotizim yaratishga intiladi. Jahon amaliyotida Xitoyning Ant Group va WeChat

17 Muallif tomonidan tuzilgan

18



Pay platformalari ekotizim raqobatining eng yorqin namunasidir¹⁹. Ushbu platformalarda foydalanuvchi bank operatsiyalari, xarid qilish, sug'urta, investitsiya va kundalik xizmatlarni bitta ilova orqali amalga oshira oladi. O'zbekiston sharoitida ham Uzum Bank va Humans.uz platformalari shu yo'lda rivojlanmoqda.

Raqamli bank xizmatlari bozorida raqobatni shakllantiruvchi yangi ishtirokchilar va ularning xususiyatlari 3-jadvalda tizimli tarzda keltirilgan.

3-jadval

Raqamli bank xizmatlari bozorida raqobatni shakllantiruvchi yangi ishtirokchilar va ularning xususiyatlari²⁰

Ishtirokchi turi	Asosiy ustunlik	Raqobat yo'nalishi	Global misol	O'zbekiston analogi
An'anaviy tijorat banklari	Kapital, brend, litsenziya, ishonch	Raqamli kanallarni kengaytirish	JPMorgan Chase, Santander	Xalq banki, Ipoteka-bank, Asaka banki
Neobank / Raqamli banklar	Filiatsiz, past xarajat, UX/UI sifati	Narq va interfeys raqobati	Revolut, N26, Chime	Uzum Bank, TBC Uzbekistan
FinTech kompaniyalari	Muayyan xizmatda chuqur ixtisoslashuv	To'lov, kredit, investitsiya segmentlarida raqobat	Stripe, Klarna, Ant Group	Payme, Click, Humans.uz
BigTech platformalari	Katta foydalanuvchi bazasi va ma'lumotlar boyligi	Ekotizim ichida moliyaviy xizmatlar integratsiyasi	Apple Pay, Google Pay, WeChat Pay	Alibaba/Uzum ekotizimi
Markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC)	Davlat kafolati, raqamli milliy pul birligi	Depozit va to'lov bozorida bevosita raqobat	e-CNY (Xitoy), e-EUR (EUR zona)	Raqamli so'm (Markaziy bank ishlanmasi)
Open Banking API sheriklar	API integratsiyasi va ekotizim kengaytmasi	Bank ma'lumotlarini uchinchi tomon xizmatlariga ulash	Plaid, Tink, Salt Edge	HUMO, UzCard API sheriklar

3-jadvalda keltirilganidek, raqamli bank xizmatlari bozorida raqobatni shakllantiruvchi yangi ishtirokchilar doirasi sezilarli darajada kengaygan. An'anaviy tijorat banklar bilan bir qatorda neobank va raqamli banklar, FinTech kompaniyalari, BigTech platformalari va endilikda CBDC ham raqobat maydoni ishtirokchilariga qo'shilmoqda. Singapur Pul-valyuta boshqarmasi 2020-yilda raqamli bank litsenziyalashning maxsus tizimini joriy etib²¹, Yevropa Bank Nazorati Organi 2022-yilgi hisobotida bank sektorining raqamlashuvini batafsil tahlil qilgan²², Xitoy Xalq banki esa raqamli yuan (e-CNY) loyihasini global miqyosda yetakchilik darajasiga olib chiqdi²³.

O'zbekiston uchun ayniqsa muhim jihati shundaki, mahalliy FinTech ekotizimi — Payme, Click, Humans.uz, Uzum Bank — jadal rivojlanib, an'anaviy banklarning bozordagi mavqeiga jiddiy raqobat yaratmoqda. Shu bilan birga, CBDC — raqamli so'm — loyihasining rivojlanishi kelgusida depozit bozorida tubdan yangi raqobat muhitini vujudga keltirishi mumkin.

Raqamli bank xizmatlari bozorida raqobatning yangi shakllarini tushunishda ochiq banking (Open Banking) kontsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv bo'yicha banklar o'z mijozlarining

19 Bank for International Settlements. BigTech and the changing structure of financial intermediation // BIS Working Papers. — 2019. — No. 779. — P. 12–18.

20 Muallif tomonidan tuzilgan

21 Monetary Authority of Singapore. Digital Banking Licensing Framework. — MAS, 2020. URL: <https://www.mas.gov.sg/regulation/banking/digital-banks>

22 European Banking Authority. EBA Report on the digitalisation of the banking sector and financial innovation. — EBA/REP/2022/26. — Paris, 2022. — P. 34.

23 People's Bank of China. Digital RMB Progress Report. — PBC, 2023. URL: <http://www.pbc.gov.cn>

ma'lumotlarini uchinchi tomon xizmat provayderlariga — albatta, mijoz roziligi bilan — API orqali taqdim etishi lozim. Ushbu tizim Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqida PSD2 direktivi orqali keng joriy etilgan bo'lib²⁴, bank xizmatlari bozorida raqobatni tubdan o'zgartirdi. O'zbekistonda ushbu yo'nalish endigina shakllanayotgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan API standartlarini joriy etish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilmoqda.

Raqamli bank xizmatlari bozorining beshinchi muhim o'ziga xos xususiyati — regulyatorlik muhitining asimmetrik xarakteri. Lyons, Jia va He o'z tadqiqotlarida FinTech kompaniyalari va neobanklarning an'anaviy banklarga qaraganda ancha kam regulyatorlik yukiga duch kelishini ko'rsatdi²⁵. Bu holat "level playing field" — teng raqobat maydoni muammosini yuzaga keltiradi. Bir tomondan, FinTech kompaniyalari yangi xizmatlarni tezroq va arzonroq joriy eta oladi; ikkinchi tomondan, an'anaviy banklar kapital yetariligi, likvidlik va boshqa prudensial talablarni bajarish majburiyatini o'z zimmasida ko'taradi. Ushbu asimmetriya raqobatni baholashda metodologik qiyinchiliklar tug'diradi va regulyatorlik aralashuvining zaruriyatini asoslaydi.

Oltinchi xususiyat — raqamli bank xizmatlari bozorida geografik chegaralarning yo'qolishi. Agar an'anaviy bank raqobati asosan muayyan geografik hududda kechadigan bo'lsa, raqamli xizmatlar globallashtirish imkoniyatini yaratadi. Neobank kompaniyalari o'z xizmatlarini bir vaqtning o'zida bir necha mamlakatda taqdim eta oladi. Bu holat O'zbekiston bank sektori uchun ham o'ta dolzarb: mahalliy tijorat banklari nafaqat o'zaro raqobatda, balki xalqaro raqamli platformalar bilan ham raqobatlashishga majbur bo'lmoqda. Bogaard va Doerr o'z tadqiqotlarida ushbu globallashtirishning moliyaviy barqarorlikka yangi risk omillarini kiritishini ko'rsatib bergan²⁶.

Raqamli va an'anaviy bank xizmatlari raqobatining qiyosiy xususiyatlari 4-jadvalda tizimli tarzda keltirilgan.

4-jadval

Raqamli va an'anaviy bank xizmatlari raqobatining qiyosiy xususiyatlari²⁷

Raqobat mezon	An'anaviy bank raqobati	Raqamli bank xizmatlari raqobati
Raqobat maydoni	Geografik hudud va filial tarmog'i	Virtual platforma, API integratsiyasi, global miqyos
Asosiy raqobat vositasi	Foiz stavkasi va xizmat narxi	Interfeys sifati, tezlik, ma'lumot va ekotizim boyligi
Raqobatchilar doirasi	Faqat litsenziyalangan tijorat banklari	Banklar + FinTech + BigTech + Neobank + CBDC
Raqobat ustunligi manbai	Kapital miqdori, filial tarmog'i, brend	Ma'lumotlar, tarmoq effekti, innovatsiya tezligi
Mijoz o'tish xarajati	Yuqori (hujjatlar, vaqt, fizik tashrif)	Past (yangi hisob ochish bir necha daqiqa)
Innovatsiya sikli tezligi	Sekin — yillik strategiyalar va byudjet sikllari	Tez — agile metodologiya, haftalar ichida yangilanish
Asosiy baholash ko'rsatkichi	Bozor ulushi (%), aktivlar hajmi, NIM	DAU/MAU, NPS, API chaqiruvlar soni, ekotizim hajmi
Regulyatorlik yuki	Katta — kapital, likvidlik, prudensial talablar	Asimmetrik — FinTech va neobanklarga yengilroq talablar

4-jadvalda aks ettirilganidek, raqamli bank xizmatlari bozorida raqobatning yangi shakllari an'anaviy bank raqobatidan sakkiz muhim mezon bo'yicha farqlanadi. Ayniqsa diqqatga sazovor farqlar quyidagilardir: birinchidan, raqobat maydoni geografik hududdan virtual platformaga o'tgan; ikkinchidan, asosiy raqobat vositasi foiz stavkasi va narxdan interfeys sifati va ekotizim boyligiga o'tgan; uchinchidan, raqobatchilar doirasi faqat litsenziyalangan banklar bilan cheklanmay, BigTech va FinTech kompaniyalarini ham qamrab olgan.

Bu farqlar banklararo raqobatni baholashda an'anaviy ko'rsatkichlar — HHI indeksi, Lerner indeksi, Panzar-

24 Directive (EU) 2015/2366 of the European Parliament and of the Council on payment services in the internal market (PSD2). — Brussels, 2015.

25

26

27 Muallif tomidan tuzilgan



Rosse H-statistikasi, Boone indikatori²⁸ — bilan birga yangi, raqamli muhitga moslashtirilgan ko'rsatkichlarni qo'llash zaruriyatini asoslaydi. Raqamli muhitda raqobat ustunligining katta qismi narxda emas, balki ma'lumot boyligi, interfeys sifati va ekotizim hajmida mujassamlashgani sababli mavjud baholash modellarning raqamli bank xizmatlari bozori uchun cheklangan qo'llanilishi seziladi.

Raqamli bank xizmatlari bozorining o'ziga xos xususiyatlari va ularning raqobatga ta'siri 5-jadvalda umumlashtirilgan.

5-jadval

Raqamli bank xizmatlari bozorining o'ziga xos xususiyatlari va ularning raqobatga ta'siri²⁹

Xususiyat	Mazmuni	Raqobatga ta'siri	Ilmiy manba
Ko'p tomonlama tarmoq effektlari	Platformadagi foydalanuvchilar soni oshgani sayin xizmat qiymati ortib boradi (Metcalf qonuni)	Yirik platformalar o'z ustunligini mustahkamlaydi — “kuchlilar yanada kuchli” effekti	Rochet, Tirole (2003)
Past chegara xarajatlari	Raqamli xizmat ko'rsatishning qo'shimcha foydalanuvchiga xarajati nolga yaqinlashadi	Narq raqobatini kuchaytiradi va yangi raqobatchilar bozorga kirishini osonlashtiradi	Mariotto, Verdier (2022)
Ma'lumotlarning strategik ahamiyati	Mijoz xulq-atvor ma'lumotlari eng muhim strategik resursga aylanadi	BigTech va yirik banklar ma'lumot boyligi hisobiga raqobat ustunligini qo'lga kiritadi	Koont, Zhang (IMF, 2023)
Past mijoz o'tish xarajati	Raqamli muhitda bank o'zgartirish bir necha daqiqa ichida amalga oshirilishi mumkin	Mijoz sadoqati pasayadi, raqobat kuchayadi, innovatsiya bosimi oshadi	De Lis, Urbiola (BBVA, 2022)
Geografik chegarasizlik	Neobank va FinTech kompaniyalari bir vaqtda bir necha mamlakatda xizmat ko'rsata oladi	Mahalliy banklar xalqaro raqobatchilar bilan ham kurashishga majbur bo'ladi	Lyons, Jia, He (2022)
Tez innovatsiya sikli	Raqamli mahsulotlar agile metodologiya bilan haftalar ichida yangilanadi	Statik strategiyali banklar raqobatda orqada qoladi	BIS WP 1111 (2023)
Regulyatorlik asimmetriyasi	FinTech banklarga qaraganda kamroq prudensial va kapital talablariga bo'ysunadi	Raqobat tengsizligiga olib keladi — “level playing field” muammosi	Bogaard, Doerr (BIS, 2023)

5-jadvalda keltirilgan raqamli bank xizmatlari bozorining o'ziga xos xususiyatlari va ularning raqobatga ta'siri tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu bozor bir necha o'ziga xos qonuniyatlar asosida ishlaydi. Ko'p tomonlama tarmoq effektlari, past chegara xarajatlari va ma'lumotlarning strategik ahamiyati birgalikda raqamli bank xizmatlari bozorida raqobatning an'anaviy industriyal iqtisodiyot qonuniyatlaridan tubdan farqlanishiga olib keladi. Ushbu farqlarni ilmiy jihatdan to'g'ri anglab yetish va baholash metodologiyasida hisobga olish bugungi tadqiqotning asosiy nazariy hissasini tashkil etadi.

28 Panzar J.C., Rosse J.N. Testing for monopoly equilibrium // Journal of Industrial Economics. — 1987. — Vol. 35, No. 4. — P. 443–456; Lerner A.P. The concept of monopoly and the measurement of monopoly power // Review of Economic Studies. — 1934. — Vol. 1, No. 3. — P. 157–175; Boone J. A new way to measure competition // Economic Journal. — 2008. — Vol. 118, No. 531. — P. 1245–1261.

29 Muallif tomidan tuzilgan

O'zbekiston Respublikasida raqamli bank xizmatlari bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari xalqaro amaliyotdan bir qator jihatlar bilan farqlanadi. Birinchidan, O'zbekistonda bank sektori raqamli transformatsiyasi nisbatan kechroq boshlangan: agar rivojlangan mamlakatlarda internet-banking uch-to'rt o'n yillik tarixga ega bo'lsa, mamlakatimizda bu yo'nalishdagi jadal o'sish so'nggi besh-yetti yil ichida qayd etilmoqda. Ikkinchidan, davlat ulushli banklarning bozordagi hukmronligi raqamli transformatsiya jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, raqobat dinamikasini sekinlashtirmoqda³⁰. Uchinchidan, O'zbekiston aholisining nisbatan yosh demografik tarkibi raqamli bank xizmatlariga bo'lgan talab o'sishining asosiy drayverlaridan biriga aylangan.

O'zbekiston Respublikasining bank tizimini tartibga soluvchi huquqiy baza banklararo raqobat muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli farmoni bank sektorida raqobatni kuchaytirish va raqamli transformatsiyani tezlashtirish bo'yicha qator strategik vazifalarni belgiladi³¹. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida bank tizimida raqobatni kuchaytirish va raqamli iqtisodiyotni “asosiy drayver” sohasiga aylantirish vazifalari qo'yilgan³². “O'zbekiston — 2030” strategiyasida esa bank aktivlaridagi xususiy sektor ulushini sezilarli oshirish yo'nalishi belgilangan³³.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tahlil raqamli bank xizmatlari bozorining o'ziga xos xususiyatlari va ushbu bozorda banklararo raqobatning yangi shakllarini tizimli ko'rsatib, quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirishga imkon berdi:

1. Raqamli bank xizmatlari bozori an'anaviy bank xizmatlari bozoridan yetti o'ziga xos xususiyat — ko'p tomonlama tarmoq effektlari, past chegara xarajatlari, ma'lumotlarning strategik ahamiyati, mijoz o'tish xarajatining pasayishi, geografik chegaralarning yo'qolishi, tez innovatsiya sikli va reguliatorlik asimmetriyasi — bilan tubdan farqlanadi. Bu xususiyatlar birgalikda banklararo raqobatning olti yangi shakli — platforma, ma'lumotlar, ekotizim, tezlik, reguliatorlik arbitraj va ishonch raqobati — ni yuzaga keltiradi.

2. An'anaviy banklararo raqobatni baholashda qo'llaniladigan Panzar-Rosse H-statistikasi, Lerner indeksi va Boone indikatori asosan narq va xarajat ma'lumotlariga asoslangan. Raqamli muhitda esa raqobat ustunligining katta qismi narxda emas, balki ma'lumot boyligi, interfeys sifati va ekotizim hajmida mujassamlashgan. Shu sababli mavjud baholash modellarini DAU/MAU, NPS indeksi, API chaqiruvlar soni va ekotizim hajmi kabi yangi ko'rsatkichlar bilan to'ldirish zarur.

3. O'zbekiston bank sektorida raqamli transformatsiya jadal sur'atlarda kechmoqda — Payme, Click, Uzum Bank, Humans.uz kabi mahalliy platformalar an'anaviy banklarga kuchli raqobat yaratmoqda. Raqamli to'lovlar ulushining 2020-yildagi 22 foizdan 2025-yilga 67 foizga o'sishi bu jarayonning miqyosini ko'rsatadi. Markaziy bank tomonidan Open Banking API standartlarini joriy etish va FinTech sandbox tizimini kengaytirish raqobat muhitini takomillashtirishga xizmat qiladi.

4. Reguliatorlik asimmetriyasi muammosini hal etish uchun “bir xil faoliyat — bir xil risk — bir xil tartib” tamoyili asosida differensiallashgan tartibga solish tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu tamoyil Yevropa Bank Nazorati Organi tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi va FinTech kompaniyalari hamda an'anaviy banklar o'rtasida teng raqobat maydonini yaratadi.

5. Markaziy bank raqamli valyutasi (raqamli so'm) loyihasining bosqichma-bosqich joriy etilishi depozit va to'lov bozorlarida tubdan yangi raqobat muhitini vujudga keltirishi mumkin. Shu sababli ushbu loyihaning tijorat banklariga ta'sirini oldindan baholash va kerakli mexanizmlarni ishlab chiqish zarur.

Yuqorida keltirilgan jihatlariga rioya etish O'zbekiston bank tizimida raqobatbardosh va innovatsion muhitni yaratishga, shuningdek, milliy moliyaviy ekotizimning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli Farmoni «2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida». URL: <https://lex.uz/docs/4828605>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni «2022–2026-yillarga

³⁰

³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli Farmoni «2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida». URL: <https://lex.uz/docs/4828605>

³² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida». URL: <https://lex.uz/docs/5841077>

³³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida.



mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida». URL: <https://lex.uz/docs/5841077>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida.

4. Bogaard H., Doerr S. Digital bank runs and liquidity risk // BIS Working Papers. — 2023. — No. 1111. — P. 1–35.

5. Boone J. A new way to measure competition // Economic Journal. — 2008. — Vol. 118, No. 531. — P. 1245–1261.

6. De Lis S.F., Urbiola Ortún P. Digital banking and competition in emerging markets // BBVA Research Paper. — 2022. — No. 22/04. — P. 1–25.

7. Koont N., Zhang Y.S. Digital transformation and bank competition // IMF Working Paper. — 2023. — No. WP/23/114. — P. 1–35.

8. Lerner A.P. The concept of monopoly and the measurement of monopoly power // Review of Economic Studies. — 1934. — Vol. 1, No. 3. — P. 157–175.

9. Lyons B., Jia K., He Y.H.Y. Fintech competition and bank market structure // Journal of Banking & Finance. — 2022. — Vol. 143. — P. 1–20.

10. Mariotto C., Verdier M. Competition in banking with digital technologies // Journal of Financial Intermediation. — 2022. — Vol. 50. — P. 101–118.

11. Metcalfe B. Metcalfe's Law after 40 Years of Ethernet // Computer (IEEE). — 2013. — Vol. 46, No. 12. — P. 26–31.

12. Panzar J.C., Rosse J.N. Testing for monopoly equilibrium // Journal of Industrial Economics. — 1987. — Vol. 35, No. 4. — P. 443–456.

13. Raxmonov D.A. va boshq. Moliyaviy globallashuv sharoitida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi: nazariya va amaliyot: Monografiya. — Toshkent: "Iqtisodiyot", 2018. — 240 b.

14. Rochet J.-C., Tirole J. Platform Competition in Two-Sided Markets // Journal of the European Economic Association. — 2003. — Vol. 1, No. 4. — P. 990–1029.

15. Shapiro C., Varian H.R. Information Rules: A Strategic Guide to the Network Economy. — Boston: Harvard Business School Press, 1999. — 352 p.

16. Ortiqov O.A. Tijorat banklari xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish yo'llari: 08.00.07 — "Moliya, pul muomalasi va kredit" iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent: TDIU, 2024. — 24 b.

17. Bank for International Settlements. BigTech and the changing structure of financial intermediation // BIS Working Papers. — 2019. — No. 779.

18. European Banking Authority. EBA Report on the digitalisation of the banking sector and financial innovation. — EBA/REP/2022/26. — Paris, 2022.

19. Monetary Authority of Singapore. Digital Banking Licensing Framework. — MAS, 2020.

20. People's Bank of China. Digital RMB Progress Report. — PBC, 2023.

21. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari. www.cbu.uz

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100